

YANGI O'ZBEKISTON MA'NAVIY POYDEVORINI MUSTAHKAMASHDA YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY MEROSINING O'RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15674060>

I.N. Axatov,
Alfraganus universiteti
“Xalqaro munosabatlar va tarix”
kafedrası o'qituvchi.
ilhom.ahatov85@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda mamlakatimizda “Yangi O'zbekiston” g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar zamirida nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki ma'naviy-ma'rifiy yuksalish ham muhim o'rin tutishiga e'tibor qaratilgan. Zero, jamiyat taraqqiyotining asosi bu – xalqning ma'naviyati, tarixiy xotirasi va milliy o'zligidir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevorini mustahkamlashda buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho ma'naviy merosga murojaat qilish g'oyat muhim o'rin tutishi izohlangan. Bu borada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asariga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig, ma'naviy meros, allomalar, ta'lim-tarbiya, ilm-fan.

THE ROLE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF YUSUF KHOS KHOJIB IN STRENGTHENING THE SPIRITUAL FOUNDATION OF THE NEW UZBEKISTAN

I.N. Axatov,
Lecturer, Department of International Relations and History, Alfraganus
University

Abstract. Today, in our country, the large-scale reforms being implemented on the basis of the idea of "New Uzbekistan" are based not only on economic and political, but also on spiritual and educational uplift. After all, the basis of the development of society is the spirituality, historical memory and national identity of the people. From this point of view, it is of great importance to turn to the invaluable spiritual heritage left by our great ancestors in strengthening the spiritual foundation of New Uzbekistan. Among this spiritual heritage, Yusuf Khos Hojib's work "Kutadgu bilig" occupies a special place.

Keywords: New Uzbekistan, Third Renaissance, Yusuf Khos Hojib, Kutadgu bilig, spiritual heritage, scholars, education, science.

KIRISH

O'rta Osiyo allomalarining axloq-odob, ma'naviyat va ma'rifat borasidagi qarashlari hamda g'oyaviy tarbiyani shakllantirish yo'llari bugungi taraqqiyotimizda ham, yosh avlod tarbiyasi va kelajagi uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning hayotiy tajribalari, jamiyatda insonning tutgan o'rni, g'oyalar haqidagi purma'no fikrlari har bir o'sib kelayotgan yosh avlod g'oyaviy-siyosiy madaniyatining shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

“Qutadg'u bilig” XI asr so'z san'atining nodir namunasi bo'lib, unda o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma'lumot berilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari taxminan, 1069-1070-yillarda yozilgan va unda axloqiy g'oyalar, adolat, to'g'rilik, aql va taqvo kabi fazilatlar bayon etilgan. Bu adabiy yodgorlik nafaqat o'zbek adabiyotining qadimgi ildizlarini, balki xalqning madaniy va ma'naviy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari aql va adolat, baxt-saodat, farovonlik haqida gapirib, do'stlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, odillik kabi insoniy xislatlarning shaxs kamolotida muhim o'rin egallashi uqtirilgan. Unda ham inson hayoti va faoliyatining birlamchi asosi ta'lim-tarbiya va bilim egallash deb eslatiladi. U g'oyaviy tarbiyani (fikir tarbiyasini) faqatgina ilm-fan va ma'rifat bilan sog'lomlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib bilimni zulmat ichidagi nurafshon mash'alaga o'xshatadi. Uning fikricha, nutq madaniyati shaxsning bilimdonlik va ma'naviy komillik darajasini belgilab beradi, insonni ulug'laydi³⁸⁰.

Yusuf Xos Hojib ijodiy merosidan bugungi kunda foydalanish zarur bo'lgan qismlaridan biri ilmni to'g'ri yo'lga sarflash, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida ishlatish masalasidir³⁸¹. Yusuf Xos Hojib ilm-fanni egallashni targ'ib etibgina qolmaydi, uni hayotdga tadbiq etish, amalda qo'llay bilishga ham da'vat etadi³⁸². Ilm-fanning barcha sohalarida muntazam Uchinchi Renessansga poydevor qo'yish yosh avlodni yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, allomalar tomonidan yaratilgan adabiy-badiiy meros bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu jarayon ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi³⁸³.

Umuman olganda, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilishi 2016-yilning dekabr oyi so'ngida, yurtimiz ilm-fani fidoyilari – akademiklar bilan bo'lgan

³⁸⁰ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Қадимий ҳикматлар тўплами. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 312 б.

³⁸¹ Muhamedov A.A. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari //“XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №1, 2024 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022.-B. 66-69.

³⁸² Muhamedov A.A. Yusuf Has Hacib'in Bilimsel Mirasının Sosyo-Felsefi Analizi. Istanbul. “Neyzen kitap” 2024. – 170 s.

³⁸³ Ochilova D. O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o'rni (1985-20021yy): tarix fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2023.

uchrashuvda boshlangan edi. Shavkat Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining ilk davridanoq ilm-fan rivojisiz hamda jamiyat a'zolarining ma'naviy darajasiz mamlakatni rivojlantirib bo'lmagligiga alohida e'tibor qaratdi.

“Hukmdorlarning qaysi birida bilim bo'lsa, bilimga e'tibor kuchli bo'lsa, o'sha yaxshi, ezgu ishlarni amalga oshiradi, mamlakatda qonun-tartibotlarga, adolat va bunyodkorlikka rivoj beradi”³⁸⁴. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarida ana shunday deb yozgan edi. Ulug' ijodkorning bunday xulosaga kelishi o'z-o'zidan bo'lmagan. U turli davrlarda yashab o'tgan ko'plab hukmdorlarning tarixini, taqdirini o'rgangan, yurt uchun, xalq uchun qilgan ezgu ishlaridan shunday xulosa chiqargan. Haqiqatan ham, hukmdor ilm-fanni qadrlaydigan, bilimdon inson bo'lsa, mamlakat yuksak taraqqiyotga erishgan, unda insonlar baxtli hayot kechirishgan, yurt obod bo'lgan.

Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadg'u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari davlat boshqaruvi, adolatli hukmdor, axloqiy-ijtimoiy tartiblar va inson fazilatlariga oid chuqur falsafiy qarashlarni o'z ichiga oladi.

Asarda muallif davlatning to'g'ri boshqarilishi, ijtimoiy muvozanat va insoniy munosabatlar haqida chuqur falsafiy fikrlarni ilgari suradi. Yusuf Xos Hojib boshqaruv tizimining asosi bu — adolat, donolik, mehnat va saodat ekanligini takror-takror ta'kidlaydi.

Asarning bosh qahramonlari:

Kuntug'di elig – ko'ni to'ru (chin adolat), adl timsoli – podshoh lavozimidadir.

Oyto'ldi – qut (baxt), davlat timsoli – vazir lavozimidadir. O'gdulmish – uqush (zakovat), aql timsoli – vazirning o'g'lidir. O'zg'urmish – afiyat, qana'at timsoli – O'gdulmishning qarindoshidir. Asarda ular o'rtasida savol-javob, munozara kechadi.

Yusuf Xos Hojib ana shu qahramonlarning savol-javobi, suhbatlari orqali o'zining ilg'or falsafiy qarashlarini, jamiyatni adolat bilan boshqarish, kishini tugallikka yetaklovchi fikrlarini bayon etadi, kishilar orasidagi insoniy munosabatlar, axloq-odobdan saboq beradi³⁸⁵.

Yusuf Xos Hojib e'tibor qaratgan asosiy axloqiy masalalardan biri tarbiyadir. Bunda asosiy o'rinda oila va farzand tarbiyasi turadi. Ushbu masalaga Sharqda nafaqat Yusuf Xos Hojib, balki, boshqa olimlar ham e'tibor qaratib kelganlar. Mutafakkir o'z xalqning an'alarini, yashash tarzini, oilaviy axloqiy tarbiya qonun-qoidalarini yaxshi o'rgangan holda, ularni falsafiy jihatdan talqin qilgan³⁸⁶.

“Qutadg'u bilig” – baxtu saodat kitobi. Asarni o'qib, ibrat olgan, undagi ko'rsatmalarga amal qilgan kishilarga saodat eshiklari ochiladi. Bu xususida adib shunday yozadi:

***Kitab ati urdum «Qutadg'u bilig»,
Qutadsu, o'qig'liqa tutsu elig.***

³⁸⁴ Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. - Т.: Фан, 1971.

³⁸⁵ <https://uza.uz/oz/posts/qutadg-u-bilig-asarining-yaratilganiga-950-yil-to-ldi-15-10-2019>

³⁸⁶ Muhamedov A.A. “Yusuf Xos Hojib falsafasida ma'naviy barkamol inson konsepsiyasi “// O'zMU xabarlar. – № 1/3. – Toshkent, 2025. – B. 136-138.

***(Kitobga «Qutadgʻu bilig» deb ot qoʻydim,
Baxtga eltsin, oʻqigan kishining qoʻlidan tutsin).***

Asarda davlat boshqaruvining asosiy vazifalari sifatida qonunlarni toʻgʻri qoʻllash, xalq bilan yaxshi munosabatda boʻlish, davlat ichki-iqtisodiy siyosatini samarali yuritish koʻrsatilgan. Hukmdor va amaldorlar oʻz burchlarini bilib, xalqqa xizmat qilishi lozimligi taʼkidlanadi. Shu bilan birga, asar qonun va adolatning ustuvorligini, huquqiy masalalarga alohida eʼtibor berishni targʻib qiladi.

“Qutadgʻu bilig”da jamiyatning turli tabaqalari oʻzaro munosabatlari va ularning huquq hamda burchlari batafsil koʻrsatilgan. Shoir jamiyatdagi barcha toifalarning – podshohdan tortib dehqon va hunarmandlargacha – oʻz oʻrinlari va masʼuliyatlari borligini taʼkidlaydi. Asarda ijtimoiy tartiblar adolat va axloqiy qadriyatlarga asoslangan boʻlib, yaxshi xulq-odob, maʼrifat va obodonchilik targʻib qilinadi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, har bir kishi jamiyatga munosib boʻlib kamol topishi kerak, bu esa ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Asar ijtimoiy ziddiyatlarni inkor etmay, ularni hal etish yoʻllarini koʻrsatadi, shuningdek, hukmdorlar oʻrtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish va hamkorlik oʻrnatish zarurligini taʼkidlaydi.

“Qutadgʻu bilig” dunyo olimlarining doimiy eʼtiborida boʻlib, oʻzbek, turk, rus, qozoq, qirgʻiz, ozarbayjon, turkman, uygʻur, ingliz, nemis tillarida ilmiy tarjimalari va tadqiqotlari nashr etilgan. 2019-yilni YUNESKO tomonidan “Xalqaro “Qutadgʻu bilig” yili” deb eʼlon qilindi. 2020-yil 27-28-noyabrda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ushbu buyuk yozma yodgorlikning 950 yilligi munosabati bilan “Jahon turkologiyasining buyuk obidasi “Qutadgʻu bilig” va uni oʻrganishning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya oʻtkazildi.³⁸⁷

Xulosa

Yusuf Xos Hojib — XI asrning yirik mutafakkiri, davlat arbobi va adibi sifatida oʻz davrida jamiyatni boshqarish, axloqiy-ijtimoiy muammolarni hal qilish, adolatli davlat tuzish masalalarini chuqur falsafiy asosda yoritib bergan. Uning asarlarida ilgari surilgan gʻoyalar bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan, balki zamonaviy taraqqiyot yoʻlida muhim dasturilamal boʻlib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Yangi Oʻzbekistonda inson qadri, adolatli boshqaruv, xalq manfaatlarini ustuvor qoʻyish kabi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir paytda, Yusuf Xos Hojibning merosi bu gʻoyalarning tarixiy ildizlarini ochib beradi.

“Qutadgʻu bilig”da ilgari surilgan gʻoyalar nafaqat oʻrta asrlar turkiy jamiyatining siyosiy-maʼnaviy poydevorini tashkil etgan, balki bugungi demokratik boshqaruv tamoyillari bilan hamohangdir. Adolat, donolik, halollik va mehnatsevarlik – Yusuf Xos Hojib ilgari surgan bosh tamoyillardir. Ushbu

³⁸⁷ <https://oliymahad.uz/41621>

qadriyatlar asosida yangi barpo etilayotgan har qanday jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Қадимий ҳикматлар тўплами. – Т.: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 312 б.
2. Muhamedov A.A. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Yusuf Xos Hojib falsafiy merosidan foydalanish istiqbollari //“XXI asr: fan va taъlim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №1, 2024 йил ISSN: 2181-9874 SJIF 2022.-B. 66-69.
3. Muhamedov A.A. Yusuf Has Hacib'in Bilimsel Mirasının Sosyo-Felsefi Analizi. Istanbul. “Neyzen kitap “ 2024. – 170 s.
4. Ochilova D. O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning rivojlanishida ijodiy ziyolilarning o'rni (1985-20021yy): tarix fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2023.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим), транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. - Т.: Фан, 1971.
6. Muhamedov A.A. “Yusuf Xos Hojib falsafasida ma'naviy barkamol inson konsepsiyasi “//O'zMU xabarlari. – № 1/3. – Toshkent, 2025. – B. 136-138.
7. <https://uza.uz/oz/posts/qutadg-u-bilig-asarining-yaratilganiga-950-yil-to-ldi-15-10-2019>.
8. <https://oliymahad.uz/41621>.

**O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI MUHAMMAD YUSUFNING 70
YILLIGIGA BAG'ISHLANADI
MUHAMMAD YUSUF - ISTIQLOL KUYCHISI**



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15681425>

F.f.n, dotsent Jumali Shabanov

*“Vatanni sevishni Muhammad Yusufdan o‘rganish kerak”
Islom Karimov (1998-yil, 4-dekabr)*

Odatda, tanish, judayam yaqin tanishlar haqida yozish qiyin.

Men o‘zbek xalqining buyuk shoiri, istiqlol kuychisi Muhammad Yusuf bilan 1975-yilning 31-iyul kuni Toshkent shahrining GUM savdo markazi yonidagi avtobuslar bekatida tanishganman. Qishloqdan kelib, o‘qishga hujjat topshirishning oxirgi kunida qayerga hujjat topshirishni bilmay, o‘ylanib turgan chog‘imda, baland bo‘yli, qoraroq, jingalak sochli yigitcha 35-sonli avtobusga minmoqchi bo‘lib turganida, uni ko‘rib qoldim. Bu avtobus qayerga borishini undan so‘radim. U menga avtobusning so‘nggi bekati Respublika davlat rus tili va adabiyoti institutiga borishini aytdi. O‘zi ham u yerda 2-kursda o‘qishini, institut va ustozlari juda yaxshi ekanligini maqtab gapirdi. Men tavakkal qilib, u bilan institutga bordim va hujjat topshirdim. O‘sha yili institutga kirdim.

Hech esimdan chiqmaydi. 20-sentyabr 1975-yil. Institut madaniyat saroyida O‘zbekistonning o‘sha paytdagi eng suyuqli, eng ardoqli shoirlari: Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Gulchehra Jo‘raeva, Gulchehra Nurullaeva va Oydin Hojievalar bilan uchrashuv bo‘ldi. Ana o‘sha yerda Muhammad Yusufni ikkinchi bor ko‘rdim. O‘sha uchrashuvda u o‘zining savollari bilan Oydin Hojievani lol qoldirdi. Shu-shu u bilan yaqin bo‘lib qoldik. Har ikkalamiz ham yotoqxonada yashar edik. Adabiyotga qiziqishim u bilan tez-tez uchrashib suhbat qurushimga sabab bo‘lardi. Bu orada uning ukasi Murodjon bilan juda qalin bo‘lib oldik. Murodjon ham bizning institutda mendan keyingi kursda o‘qir edi. Yillar davomida Muhammad Yusuf bilan juda ko‘p uchrashuvlarimiz bo‘lgan. Lekin bittasi haqida yozmasam bo‘lmaydi. Bu oxirgisi edi. Hattoki oxirgisi deyishga til ham bormaydi. Chunki oxirgisi ekanligini har ikkimiz ham bilmas edik.

2001-yilning 27-iyuni. 1998-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri” unvonini olgan, elga tanilgan, mashhur Muhammad Yusuf bilan Toshkent davlat sharqshunoslik institutida uchrashuv tashkil qildik. Uchrashuvni men tashkil qilgan edim. Muhammad Yusuf bizning institutimizni judayam hurmat qilar, ayniqsa rektorimiz, akademik Ne‘matullo Ibrohimovga ixloslari baland edi. Bizninsh bironta taklifimizga yo‘q deya olmas edilar. U o‘zining shogirdi, yosh shoir Milliy universitetining 1-kurs talabasi Azizbek bilan kelgan edi. Tadbir 2 soatlarga cho‘zildi. Tadbir so‘nggida shoir cho‘ntagidan hali siyohi qurimagan, she‘r bitilgan varaqlarni olib, shunday dedi: “Bu she‘rni men kecha tunda yozdim. Hali hech kim

o'qigani yo'q. Sizlar birinchi tinglovchisizlar. Mening ustozim, shoir, Shavkat Rahmonning 4 qizi bor edi. Hali birontasini turmushga bermagan edi. Bir kuni el ardoqlagan O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'raev do'stlari, tadbirkor bir kishi bilan katta qizlariga sovchi bo'lib keladi. O'sha damda Shavkat Rahmon kasal bo'lib to'shakda yotgan ekan. To'y bo'lishiga kelishiladi. Bu yangilik ustozni ko'rpadan turg'izadi. U kasalligini unutib, to'y tashvishlariga sho'ng'ib ketadi. To'yga 3 kun qolganda, xunuk xabar keladi. To'y bo'lmasligi aniq bo'ladi. Shundan so'ng, Shavkat Rahmon yana ko'rpaga mixlanib qoladi va bir necha kundan keyin vafot etadi. Mening ham qizlarim bor, hali birontasini ham uzatganim yo'q. Ustozimga o'xshab to'y ko'rolmay o'tamanmi deymanda. Bu she'rni "Lolaqizg'aldoq" deb atadim. Mana eshitinglar:

Mendan nima qolar:

Ikki misra she'r,

Ikki sandiq kitob,

*Bir uyum tuproq...*³⁸⁸

She'r tugaganida 400 kishilik madaniyat saroyi sukunatga cho'kkan edi. Shoirning ko'zlaridan yoshlar tomardi. Men ilk marta uning yig'layotganini ko'rdim. Shunda zal birdan larzaga keldi. Qarsaklar yangradi. Uzoq davom etdi. Tadbir tugagach, odatdagidek bir piyola choyga taklif qildik. Ilk bora taklifimizni rad etdilar. Bugunoq Andijonga borib, onasini, oilasini ko'rib u yerdan davlat topshirig'iga ko'ra Qoraqalpog'istongga bormoqchi ekanligini aytdi. "Xudo xohlasa kontsertda ko'rishamiz" – deb butun zalni kontsertga taklif qildi. Chunki, u 7-8 iyul kunlari "Zarafshon" saroyining kontsert zalida ilk bora mualliflik kontsertini o'tkazmoqchi edi.

Afsuski, 3 kun o'tmay butun O'zbekiston bo'ylab, qora xabar tarqaldi. Muhammad Yusuf Qoraqalpog'istonda olamdan o'tgan edi. Ana shunda bildimki, bu bizning oxirgi uchrashuvimiz ekan. Radiodan, televideniya, gazetalardan kelishib, tadbir haqida biron bir material bormi deb so'rashdi. Uni tarixga muhrlab tasmaga olish kimning ham xayoliga kelibdi.

Muhammad Yusuf Vatanini – O'zbekistonni jonidan ortiqroq sevar edi. Oddiy so'zlar bilan inson qalbini larzaga soluvchi, Vatanga mehr-u muhabbatni orttiruvchi, uni sevishga undovchi, ardoqlovchi ifodalarni xalqning o'zidan olib, o'ziga bera olardi.

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim,

O'zing xoqon,

O'zing sulton,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim,

Yagonam deymi,

³⁸⁸ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent – 2014. 367-bet

*Toppingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan Vatanim...*³⁸⁹

U Vatanimiz tarihini, o'tmishini, urf-odatlarini, ulug' farzandlarini juda yaxshi bilar, ularni qadrlardi, ular bilan g'ururlanardi. Har bir uchrashuvda hoh talabalar bo'lsin, hoh oddiy kolxozchi bo'lsin, hoh ziyoli bo'lsin mana shu qadrli tuproqlarni, ulug' insonlarni sevishga undardi.

*Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolik deb,
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, Vatanim...*³⁹⁰

Bobokalonlarimiz taqdir taqozosi bilan bir qancha davlatlarga tarqalib ketishgan. Ularning qabrlari Afg'onistonda, Hindistonda, Enasoy tomonlarda qolib ketgan. Ularni hech qachon unutmaslikka chaqirardi. Millat, Xalq bo'lishi uchun birlashmog'i, Vatanida jipslashmog'i, Vatanining har qarich tuprog'ini o'ziga qo'rg'on bilmog'i kerak derdi.

*Bo'lar elning bolalari bir-birbirin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo'l endi. Qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim!*³⁹¹

Muhammad Yusuf nihoyatda dovyurak, qo'rqmas va e'tiqodli inson edi. Dini butun, iymonli, pok inson edi. Garchi rus tili va adabiyot institutida o'qiyotgan bo'lsa ham sharq mumtoz adabiyotini va tasavvufni juda yaxshi bilar edi. Shoir yashagan davrdagi tizim dahriylik tizimi bo'lsada, u Islom dinini qadrlar va uni targ'ib qilishga intilar edi.

*Mening ko'shkim ko'kda – unga yetmaydi qo'l,
Mening ko'rkim ko'ngil, unga eltay bir yo'l,
Tirikman men, kel istasang muridim bo'l –
Sen Islomdan iymon darsin o'rgan, dunyo!..*³⁹²

Muhammad Yusuf boshqa shoirlardan farqli o'laroq, dunyo kezgani yo'q. U faqatgina O'zbekistonni kezdi. O'zbekistonning so'lim go'shalari-yu dasht-u

³⁸⁹ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Vatanimsan". Toshkent – 2014. 18-bet

³⁹⁰ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Vatanimsan". Toshkent – 2014. 19-bet

³⁹¹ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Xalq bo'l elim". Toshkent – 2014. 19-bet

³⁹² Muhammad Yusuf. Saylanma. "Dunyo". Toshkent – 2014. 57-bet

vohalarini qarichma-qarich yurgan shoir. (Faqatgina bir yarim yil (1978-79) Rossiyada armiya safida bo'lib qaytdi.)

Muhammad Yusufni qushlarning sayrashi, soylarning shildirab oqishi, yam-yashil dalalarning uzanib yotishi, tabiatning o'zgarishi, ko'klamning kelishi hayratga solar edi. Yam-yashil bedapoyada uzala yotib, tabiatni kuzatishni sevar edi. Bo'lib o'tayotgan har qanday jarayon unga ilhom berar edi.

Sayroqi bedanalarga Vatan bo'lgan bedapoyalarni ham o'zgalardan qizg'onar edi.

*O, ota makonim,
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga,
Senday mehribon yo'q,
Seningdek ko'rkam,
Rimni alishmasman bedapoyangga.*³⁹³

Shoir bu misralarda Rimni uning shon-shuhratini yerga urmoqchi emas. Rim baribir Rim. Lekin Muhammad Yusuf uchun uni ardoqlagan, uni allalagan, uni yo'rgaklagan bedapoyani Rimdan ham ko'proq sevadi, ko'proq qadrlaydi. O'zbekning loyshuvoq uylarini, chang-tuproq ko'chalarini, hattoki loydan yasalgan kichkina tandirchani ham Parijga almashtirishni xohlamaydi.

*Ko'rdim suluvlarning eng faranglarin,
Yo xudbinman, yo bir sodda kasman men:
Parijning eng go'zal restoranlarin,
Bitta tandiringga alishmasman men.*³⁹⁴

Shoir unib o'sgan qishlog'ini, sharqirab oqayotgan ariq va soylarni, bag'ri keng Marhamat bog'larini, birga o'sib ulg'aygan do'stlarini, hamqishloqlarini unutmaydi. Doim yodda tutadi, ular bilan dardlashadi.

*Ugan joyimga-ku, qullug'im bisyor,
Sog'inch to'la dilim aylar ming faxr.
Ammo boshim silar bitta Vatan bor,
Men ham uning bitta o'g'liman, axir.*³⁹⁵

Muhammad Yusuf oddiy bir qishloqning oddiy oilasidan ekanligidan, Marhamatning mard o'g'loni ekanligidan fahrlanadi.

Muhammad Yusuf turg'unlik davrining shoiridir. Lekin, u bu tizimni, bu davrni hazm qila olmas edi. Vatanining mustaqillikka erishishini, hur bo'lishini xohlabgina qolmasdan, unga intilardi, o'z hissasini qo'shishga harakat qilardi. "Mustaqillik dardi" unga ustoz Shavkat Rahmondan yuqqan edi.

*Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,
Yig'lasa ham Vatan, kulsa ham Vatan,
Unga jonni tikmoq tilaging bo'lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.*³⁹⁶

³⁹³ Muhammad Yusuf. Saylanma. "O'zbekiston". Toshkent – 2014. 373-bet

³⁹⁴ Muhammad Yusuf. Saylanma. "O'zbekiston". Toshkent – 2014. 373-bet

³⁹⁵ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Mish-mish". Toshkent – 2014. 351-bet

Muhammad Yusuf 1984-yilgi Kommunistik partiya Plenumidan keyin O'zbekistonga Markazdan minglab "noyob kadr"lar keltirilishi, ularning o'zbek xalqini tahqirlashi, Gdlyan va Ivanov kabi qonxo'rlarning "O'zbek ishi" deya tuhmatnoma asosida, aybsiz, gunohsiz o'zbeklarni mol-mulkini musodara qilib, boyliklarini Markazga jo'natib, o'zlarini qamoqqa tiqishiga chiday olmaydi, isyon qiladi.

Uying kuydi o'zbek,

Sho'ring quridi.

Poygaging quridi,

To'ring quridi.³⁹⁷

Eli deb kim kuysa –

Bari qamaldi.³⁹⁸

Markazdan 1970-80-yillar O'zbekistonga "paxta yetishtirib bering" degan topshiriqlar kelar edi. Qisqa vaqt ichida 4 million tonnalik reja 6 millionga ko'tarildi. O'zbek xalqi o'z tomorqasiga, hatto tomigacha paxta eka boshladi. Xosilni ko'paytirish uchun erta tongdan to yarim tungacha paxta dalalariga zaharli o'g'itlar berilardi. Yetmaganidek, samolyotdan odamlar ustiga zahar sochilardi, bu esa qancha-qancha odamlarning umrbod kasal bo'lishiga, hatto olamdan o'tishiga olib kelar edi. Bu zug'um nafaqat yoshi katta odamlarning, balkim yosh bolalar, norasida go'daklarning ham o'limiga sabab bo'lar edi. Bu voqealar haqida shoir o'zining "Ilyos" she'rida shunday yozadi:

Ustingdan og'ular sepishdi qancha,

Murg'ak yuragingga nishlarin sancha.

Endigina tili chiqqan odamcha –

Ilyos, ko'zlarindan aylanay sening.³⁹⁹

Erta tongdan to tungacha paxta dalasida umri o'tgan o'zbek, Markazdagilarni boy qilgani holda o'zining yeyishiga bir burda qora non topa olmas, topganini ham Gdlyan-Ivanovchilar va ularning hamtovoqlari Markazga olib ketar edi. Qamaqamashlar boshlangan, zulm cho'qqisiga chiqqan damlar, o'sha paytdagi O'zbekiston hukumat rahbarlari churq etmas, Moskvaga qarshi biron og'iz so'z ayta olmas edi. Mana shunday og'ir damlarda Muhammad Yusuf qo'rqmasdan, baralla, ovozining boricha xalqqa murojaat qildi, xalqni uyg'onishga da'vat etdi:

Nahoringda paxta, shomingda paxta,

Ayvoningda paxta, tomingda paxta.

Oqar og'u bo'lib qoningda paxta,

Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?⁴⁰⁰

³⁹⁶ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Inson". Toshkent – 2014. 261-bet

³⁹⁷ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Gdlyan". Toshkent – 2014. 347-bet

³⁹⁸ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Gdlyan". Toshkent – 2014. 347-bet

³⁹⁹ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Ilyos". Toshkent – 2014. 199-bet

⁴⁰⁰ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Andijon". Toshkent – 2014. 51-bet

O'zbekiston va o'zbek xalqi uchun o'ta og'ir bo'lgan damlarda ming afsuskim Muhammad Yusuf va u kabi Vatan uchun jon fido qilmoqchi bo'lgan insonlar bilan bir qatorda, Markazning nog'orasiga o'ynaydigan, ularning har bir topshirig'ini "labbay, bajaramiz" deb bel bog'lab turganlar, vatanfurushlar va laganbardorlar ham oz emas edi. Ana shunday insofsizlar, subutsizlar shoirning nafratini uyg'otar, qalbini titratar, butun vujudini jumbushga keltirar edi. Ularning qilayotgan ishlari hatto yovnikidan ham battar ekanligi uni azobga solar edi. Ana shular haqida shoir o'zining "Laganbardorlar she'rida shunday yozadi:

*Yov nadir? Zo'r kelsa o'ldiradi yov,
Bular qon so'rguvchi iskabtoparlar.
Qaxxorni qandkasal
Oybekni soqov
Qilib qo'yganlar ham – laganbardorlar.⁴⁰¹*

O'zbek xalqining buyuk shoiri Muhammad Yusuf turg'unlik davrida har bir hodisaga o'z munosabatini bildirar, ularni she'rga solar edi. Jumladan, 1979-yil dekabridan to 1990-yil boshlarigacha o'sha davrdagi Sovet askarlarining Afg'onistonga kiritilishiga ham qarshi chiqqan va bu holatni qoralagan edi. Bahodir o'zbek farzandlarining do'st-qadrdon afg'on tuprog'ida nima ishi bor. Nahotki afg'onlar bizga g'anim bo'lsa? Nahotki musulmon musulmonga qurol ko'tarsa? Chirib borayotgan eski tizimning tushunib bo'lmaydigan bu siyosati tufayli, qancha-qancha o'zbek o'g'lonlari Afg'onistonda halok bo'ldilar.

*Nahot g'anim bilsa odam odamni,
Kuydirib kul qilsa yorug' olamni?
Men kimga ishondim aziz bolamni
Nima bo'lsa bo'lsin urush bo'lmasin⁴⁰²*

Istiqlol kuychisi Muhammad Yusuf vaqti soati kelib, bunday tushunarsiz urushlarning tugashiga ishonadi. Jang-u jadalda qo'l kelgan qurol-aslahalarning tinchlikka xizmat qilishiga ishonadi. Insonlar, bir-biriga yaqin qo'shni davlatlar tinch-totuvlikda yashashini istaydi. Jumladan o'zining "Bir kuni" she'rida o'z ishonchlarini shunday ifoda etadi.

*O'n yilmi,
Yuz yilmi o'tib oradan,
Urushlar,
Nizolar ketib oradan,
To'plar
Adirlalda bug'doy o'radi,
Tanklar
Dalalarda paxta teradi.⁴⁰³*

Shoir orzu qilgan, intilgan va kurashgan hurlik, ozodlik, inqilobga oz qolgan edi. Shoir bunga yurakdan ishonar, Yaratganga iltijo qilar edi:

⁴⁰¹ Muhammad Yusuf. Saylanma. "Laganbardorlar". Toshkent – 2014. 56-bet

⁴⁰² Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. "Urush bo'lmasin". Toshkent – 2016. 14-bet

⁴⁰³ Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. "Bir kuni". Toshkent – 2016. 9-bet

*Hurlik qanday tansiq soʻz,
Qullik qalbga sanchiq soʻz.
Hurriyatning boshida
Tutganga ber, Xudoyim.⁴⁰⁴*

1991-yil 1-sentyabrda Oʻzbekiston Mustaqillikka erishdi. Shoir oʻz asarlarida xalqni, millatni birlashishga, jipslashishga, mustaqil Vatanni sevishga chorlaydi. Mustaqillik bilan birga eʼtiqodimiz, iymonimiz, urf-odatlarimiz, qadim va buyuk tariximiz oʻzimizga qaytdi. Bizlarni qul qilib olmoqchi boʻlganlar, boyligimizni Markazga olib ketib, terimizni shilmoqchi boʻlganlarga qarata shoir shunday deydi.

*Yoritdi-ku islom nuri uyimni,
Inʼom aylab qayta tilim, kuyimni.
Yeng shimarib, yurak yutib siz kimni
Talaysiz endi?...⁴⁰⁵*

Ozodligimizning dastlabki yillarida mustaqilligimizni koʻra olmaganlar, uni hazm qila olmaganlar, uni yoʻq qilishga intilganlar nafaqat yurtimiz tashqarisida hatto yurtimiz ichida ham bor edi. “Markazsiz yashay olmaymiz” deb Markazni qoʻmsaganlar ham topilar edi. Ana shunday bir davrda shoir xalq orasiga oʻzining yangi sheʼri-shiorini oʻrtaga tashladi.

*Tuzing totib, unutganlar xor boʻladi,
Koʻzlariga ikki dunyo tor boʻladi.
Shodon daming koʻrolmagan yurtfurushlar.
Bir kuni bir kaft qumlogʻingga zor boʻladi.
Yoningda turgaymiz seni, oʻzbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, Oʻzbekiston!..⁴⁰⁶*

Mustaqillik bizga Ona Vatanimizni qaytarib berdi. Hurligimizni, ozodligimizni, gʻururimizni qaytarib berdi. Zulm va zulmat tarixda qoldi. Alloh inʼom etgan hur va ozod Vatanimizni oʻzimiz qoʻrimogʻimiz, avaylab asramogʻimiz kerak va bu bizning har birimizning insoniy burchimizdir. Shoir yozadi:

*Vatanida vatani yoʻq edik bizlar...
Oʻsha zulmat oʻtmish, sening uying kuysin.*

*Shunday yurtni xudoyimning oʻzi qoʻllab,
Shunday yurtni xudo oʻzi asrab yursin!..⁴⁰⁷*

Muhammad Yusuf Mustaqil Oʻzbekistonning haqiqiy Istiqlol kuychisiga aylandi. Uning sheʼrlariga kuylar bastalanib, butun el baralla kuylaydigan qoʻshiqlar yaratildi. Radio-televideniya, ommaviy-axborot vositalarida uning

⁴⁰⁴ Muhammad Yusuf. Biz baxtli boʻlamiz. “Tavallo”. Toshkent – 2016. 7-bet

⁴⁰⁵ Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sumalak”. Toshkent – 2014. 116-bet

⁴⁰⁶ Muhammad Yusuf. Saylanma. “Tavallo”. Toshkent – 2014. 268-bet

⁴⁰⁷ Muhammad Yusuf. Saylanma. “Tilak”. Toshkent – 2014. 378-bet

she'rlari yangramagan, uning qo'shiqlari kuylanmagan kun yo'q endi. U boshida do'ppi, qo'li ko'ksida, Vatanning suyakli farzandi, haqiqiy o'zbek o'g'loni, yurt sha'nini kuylaguvchi shoirlarning shoiri, shoirlarning darg'asi bo'ldi. U g'urur bilan:

*El qo'llasin endi bu yurt egasin,
Istagim – u hech kimga bosh egmasin.
Adl bo'yi-bastiga ko'z tegmasin,*

*Shu yurt uchun ko'ksi qalqon o'zbekman – deya hayqirdi.*⁴⁰⁸

Eli, Vatani uni ardoqladi. Shoirlar orasida 1998-yilda eng yosh “O'zbekiston Xalq shoiri” unvonini Mustaqillikning asoschisi O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimovning shahsan o'z qo'lidan olishga muvassar bo'ldi.

*Beshigimni tebratgan o'zing,
Alla aytib uxlatgan o'zing.
Uydan chiqsam ostona xatlab,
Har lahzada so'ratgan o'zing.
Yuragimda bir orzu, havas –
Senga sodiq o'g'il bo'lsam bas!..*⁴⁰⁹

Yillar o'tadi, asrlar o'tadi, tizimlar o'zgaradi. Bobokaloni Boburdek, ustoz Shavkat Rahmondek Muhammad Yusuf o'zbek xalqining qalbida abadiy qoladi. Uning she'rlari uzoq-uzoq yillar xalqning tilidan tushmaydi. Qo'shiqlari kuylanmagan kunlar o'tmaydi. Shoirning jismi foniy dunyodan ketgan bo'lsada, ruhi hamon xalqiga, millatiga xizmat qilaveradi. Shoir tirik bo'lganida bu kun 70 yoshga kirardi. Afsuski bugun u bizning oramizda yo'q, lekin uning minglab, o'n minglab izdoshlari bor. Uning ijodini davom ettirayotgan dilbar shoir Madina Yusuf bor. Uni qalbida, dilida va tilida saqlab kelayotgan millionlab o'zbeklar bor, u abadiy yashaydi.

⁴⁰⁸ Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. “O'zbekman”. Toshkent – 2016. 20-bet

⁴⁰⁹ Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo'lamiz. “Chamanistonim”. Toshkent – 2016. 16-bet